

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**G.A.Saparbayeva**

Madaniyat va san'at instituti talabalarining havaskorlik ssenariylar  
yozish qobiliyatini shakllantirish..... 313

**H.M.Asadov**

Mavzu, mazmun va lirk qahramon talqini ..... 318

**A.A.Yarkulov**

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash to'g'risida ba'zi mulohozalar ..... 322

**H.A.Djurayev, N.N.Nabiyeva, Sh.F.Latipov**

Abdulla Qodiriy ijodida teatr san`atining o'rni ..... 329

**J.DJ.Ashurov, E.X.Bozorov**

Oliy ta'lim muassasalarida "Yadro tibbiyotida radiatsion xavfsizlik" mavzusini  
o'qitishda muammoli vaziyat metodini qo'llash ..... 332

**D.M.Yuldasheva, S.S.Nishonova**

Bolalar ertak matnlarining kognitiv-semantik xususiyatlari ..... 336

**M.I.Imomaliyeva**

Amiriy ijodida Yusuf obrazi ..... 339

**G.M.Qosimova, M.I.Ne'matova**

Inson tabiatini va xarakterini ifodalovchi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari ..... 343

**N.Maqsudov**

Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirish – demokratik davlatning muhim belgisi ..... 345

**S.A.Olimjonov**

Erix Mariya remarkning "Uch og'ayni" romanida ifoda va talqin ..... 347

**Z.A.Akbarova, N.Mamasoliyeva**

O'zbeklar olam Lisoniy manzarasida "Sabr" konsepti ..... 351

**I.S.Mannopov**

Xoja Ahmad Yassaviy ijodida munozara janri ..... 354

**O'ZBEKLAR OLAM LISONIY MANZARASIDA "SABR" KONSEPTI****КОНЦЕПТ "ТЕРПЕНИЕ" В ЯЗЫКОВЫХ КАРТИНАХ МИРА УЗБЕКОВ****THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN THE LINGUISTIC WORLD PICTURE OF THE UZBEKS****Akbarova Zuxro Akmaljanovna<sup>1</sup>, Mamasoliyeva Nozima<sup>2</sup>****<sup>1</sup> Akbarova Zuxro Akmaljanovna**

– Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari doktori

**<sup>2</sup>Mamasoliyeva Nozima**

– Farg'ona davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqola sabr konseptining lingvomadaniy, lisoniy tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda lingvo kognitiv yo'naliш umuman kognitiv lingvistikada "mental leksika" tushunchasining ahamiyati, konsept va uning mohiyatni, "Sabr" tushunchasining falsafiy, diniy hamda lingvofalsafa va lingvokulurologiya nuqtayi-nazaridan ham murakkab va ko'p qirrali tushunchalardan biri ekanligi haqida mulohazalar bayon etilgan. Bundan tashqari, maqolada zamonaviy jamiyatda "Sabr" va "Bag'rikenglik" kabi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalarga o'ziga xos yondoshuv bilan yondashilishi har bir inson va xalq uchun muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida to'talib o'tilgan. Bu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishiga qaramay, ayni paytda ular o'zaro farq qilishi, o'zbek tilidagi "sabr" konseptining faollashuvi, uning istilohiy ma'nosi va frazeologiyada aks etgan jihatlari yoritilgan.

**Аннотация**

Данная статья посвящена лингвокультурологическому и лингвистическому исследованию концепта "терпение", в котором лингвокогнитивным направлением является значение концепта «мысленный лексикон» в когнитивной лингвистике в целом, концепт и его сущность. Понятие «Терпение» сложное и многогранное с точки зрения философской, религиозно-учреждательской и лингвофилософской и лингвокультурологической науки является одним из многогранных понятий. Кроме того, в статье подчеркивается, что в современном обществе каждому человеку и нации важно подходить к близкородственным понятиям, таким как «Терпение» и «Толерантность», с уникальным подходом. Несмотря на то, что эти два концепта тесно связаны друг с другом, в то же время они различны, выделяется активизация концепта «терпение» в узбекском языке, его идиоматическое значение и аспекты, отраженные во фразеологии.

**Abstract**

The article is devoted to the theme called linguo-cultural and linguistic study of the concept of 'patience', in which the linguo-cognitive direction is the importance of the concept of "mental lexicon" in cognitive linguistics generally, the concept and its significance, the concept of "Patience" is complex and different from the point of philosophical view, religious and linguo-philosophy and linguo-cultural studies. It is one of the various concepts. In addition, the article emphasizes that in modern society, it is important for every person and nation to approach closely related concepts such as "Patience" and "Tolerance" with a unique perspective. Although these two concepts are closely related to each other, at the same time they are different, the activation of the concept of "patience" in the Uzbek language, its idiomatic meaning and aspects reflected in phraseology are highlighted.

**Kalit so'zlar:** lingvokognitiv, lingvomadaniyat, "Sabr" konsepti, lingvofalsafa, maqol va matallar.**Ключевые слова:** лингвопознание, лингвокультура, концепт «Терпение», лингвофилософия, пословицы и поговорки.**Key words:** linguocognitive, linguoculture, the concept of "Patience", linguophilosophy, proverbs and sayings.**KIRISH**

Barcha dinlar aynan axloqiy qadriyatlar asosida tug'ilganligi sir emas, shunday bo'lishiga qaramay dinlar orasida Islom dini insonlarni sabrli va toqat egasi bo'lishga boshqa dinlarga nisbatan ko'proq da'vat qiladi.

"Sabr" konsepti o'zbeklar lingvomadaniyatida boshqa qator konseptlarning mohiyatini ochish uchun muhim sanaladi. "Sabr" tushunchasi turli til madaniyatlarida, tushunchalar tizimida o'sha millat olam manzarasini aks ettiradi. Bu kabi so'zlar milliy til tizimi shaklida olam haqidagi milliy konseptual bilimlar omobori vazifasini bajaradi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLИ VA METODLAR**

Ye.S.Kubryakova ta'kidlaganidek, ma'lum bir xalqqa tegishli milliy mental leksikon tahlil qilinganda, odatda, avvalo so'zga olib boruvchi tushuncha va modellar ko'rib chiqiladi, so'ngra esa uning til tashuvchilari ongidagi ifodasi, mental xususiyatlari hamda til leksikonidan tashqari lisoniy shaxsning shaxsiy leksikondagi xossalari o'rganiladi.

Kognitiv lingvistikada “mental leksika” tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Ruhiy leksikaning ifodalananishiga asoslanib, tildagi asosiy tushunchalarni aniqlash va olamning lisoniy manzarasini tasvirlash osonlashadi.

“Sabr” tushunchasi falsafa, din nuqtayi-nazaridan ham, lingvofalsafa va lingvokulurologiya nuqtayi-nazaridan ham murakkab va ko‘p qirrali tushunchalardan biridir. Zamona viy jamiyatda “Sabr” va “Bag‘rikenglik” kabi bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan tushunchalarga o‘ziga xos yondoshuv bilan yondashilishi har bir inson va xalq uchun muhim ahamiyatga ega. Bu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishiga qaramay, ayni paytda ular o‘zaro farq qiladi.

Insonlarning o‘zgalar fikrini sabr-toqat bilan tinglashi alohida qobiliyatdir. O‘zbeklar olam lisoniy manzarasida insonlar umrining oxirigacha doimo sabrli bo‘lishi kerak, degan qarashning borligi ham o‘zbeklarga xos asosiy mental xususiyatdir.

“Sabr” konsepti “Taqdir” makrokonseptining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ko‘plab xalqlar hayotida muhim o‘rin tutadi. Turli lingvomadaniyatlarda “Sabr” konseptining milliy va umuminsoniy xususiyatlari tahlilidan ko‘rish mumkinki, turli xalqlar olam lisoniy manzarasida sabr tushunchasini bardosh, toqat kabi leksemalar ham ifodalab keladi.

O‘zbek tilida so‘zlashuvchilar nutqida “Sabr” tushunchasini ifodalovchi so‘zlarning aksariyati arab tilidan o‘tib o‘zlashgan bo‘lib, sabr tushunchasi ishora sifatida eng og‘ir damlarda “Hamma narsa Allohnning irodasi”, “Allohdan o‘zga kuch va qudrat yo‘q”, “Alloh sinoviga sabrli bo‘l” kabi ta’limotlar bilan sabrli bo‘lishga targ‘ib qilingan. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, o‘zbek tili leksikasining asosiy qismi arab tilidan o‘tib o‘zlashgan leksemalardan iborat ekanligini inobatga olsak, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar olam lisoniy manzarasida sabr tushunchasi arab tilida so‘zlashuvchilar olam lisoniy manzarasidagi ifodasiga yaqin.

Shuningdek, “Qur‘oni karim” va hadislarda ifodalangan “Sabr” konsepti mo‘min kishining iymoni barkamolligidan dalolat deyiladi.

Ma’lumki, kognitiv tilshunoslikda ma’lum bir xalqning asrlar davomida to‘plagan donoligi, o‘sha xalqqa tegishli jamiyatda mavjud qarashlar va madaniyat to‘plamini aks ettiruvchi frazeologik va paremeologik materiallar muhim ahamiyatga ega. Aynan frazeologiyada olam milliy lisoniy manzarasining obrazli tizimlari va ularning o‘ziga xosligi eng ko‘p namoyon bo‘ladi, chunki maqol va frazeologik birliklar har qanday milliy tilning ruhi bo‘lib, unda o‘sha xalqning milliy ruhiyati o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Tilning paremiologik (maqol va matallar) fondi. Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o‘rin olgan javohir sandig‘i deyish mumkin. Ma’lumki, maqol va matallar folklorshunoslikda janr matnlari sifatida keng o‘rganilgan. Ularni tilshunoslikda, xususan, lingvomadaniyatshunoslikda o‘rganish endi boshlanmoqda. 4. Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma’lumotlar manbayi sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, uduumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma’naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi[8,5-6].

O‘zbeklar milliy olam manzarasining asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan “Sabr” tushunchasi ifodalangan ko‘plab maqol va frazeologik birliklarni ko‘rish mumkin. Masalan, “Azob ko‘rmay roxat yo‘q”, “Asl boylik – qanoat”, “Bir yomon kunning bir yaxshisi bor” kabi o‘zbek xalq maqollarida sabrli bo‘lishga pragmatik ishora bor.

Islom dini nuqtai nazaridan sabrlilik tinchlikni saqlashning muhim shartidir, aynan islom dunyosi o‘z navbatida, odamlar o‘rtasida munosabatlarning yetakchi tamoyili sifatida sabrli bo‘lishlari ularga ko‘p muvafaqqiyatlar uchun yo‘l ochadi deya ta’kidlaydi. Islom diniy ta’limotida sabrli bo‘lishning muhim dalili sifatida Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hayot yo’llari misol qilib keltiriladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, barcha jahon dinlari insonlarni ezzulikka, adolatga chorlaydi, lekin sabrli va bag‘rikeng bo‘lish islom dinida ustuvordir.

O‘zbeklar milliy olam lisoniy manzarasining yadrosida islomiy tarbiya va sabr konsepti bo‘lsa, unga binar oppozitsiyada sabrsiz konsepti turadi. Har ikki konsept orqali kishilarni baholash belgilari kelib chiqadi.

“Sabr” – bu o‘zbeklar olam manzarasida alohida islomiy sifat bo‘lib, bir necha asrlardan buyon o‘zbek tilining lug‘atlarida aks etib kelmoqda. “Sabr” konseptining konseptual tarkibiy qismlarining kengayishi sabr-toqat, sabr-bardosh kabi turli tarzda qo‘llanishi sabr tushunchasining o‘zbek milliy mentalitetining ajralmas qismi bo‘lib qolayotganligidan dalolat beradi.

---

## ILMIY AXBOROT

Zamonaviy o'zbek tilida mavjud turli adabiyotlar va diniy saytlar materiallarini tahliliga tortar ekanmiz, tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda o'zbek tilida so'zlashuvchilarining "sabr" so'ziga yuklaydigan ma'nolari avvalgidanda kengroq va rang-barangdir. Zamonaviy o'zbeklar ongida sabrli bo'lish maqsad sari barqaror va qat'iyat bilan harakat qilish qobiliyati deb ham tushuniladi.

### XULOSA.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, "Sabr" konsepti o'zbek tilida so'zlashuvchilar olam lisoniy manzarasida toatlilik, chidamlilik, bardoshlilik, barqarorlik, toqatlilik, xotirjamlik, sokinlik kabi tushunchalarni ham ifodalab keladi. Bu esa "Sabr" konseptining lingvistik va ijtimoiy aspektida o'rganish zaruriyati borligini ko'rsatadi.

### ADABIYOTLAR

1. Козлова Л.А. Концепт личного пространства и способы его языковой представленности // Вестник Барнаульского педагогического университета, № 3, 2001. – С. 5.
2. Бариловская, А.А. Лексическое выражение концепта «Терпение» в истории и современном состоянии русского языка: дис. ... канд. фил. наук: 10.02.01 / Бариловская Анна Александровна. – Красноярск, 2008. – 207с. Долгова, И.А. Концептуальное поле «терпение» в английской и русской лингвокультурах: дис. ... канд. фил. наук: 10.02.20 /. - Волгоград, 2006. - 164 с.
3. Давлатмиррова.М.Б Универсальное и этноспецифичное в языковой презентации макроконцепта «Судьба» (на материале таджикского, арабского и шугнано-рушанской группы языков): дис. ... докт. фил. наук: 10.02.20 / Давлатмиррова Манижа Бораковна. - Душанбе, 2019. -388 с.
4. Diniy matnlarda "Sabr" konseptining lingvokonitiv tadqiqi. Sh. Mirzayeva Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108
5. O'zbek tilining izohli lug'ati .5 jildlik.5-jild.-T.,O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashrieti.2006.411-bet.
6. [www.islom.uz](http://www.islom.uz)
7. Akbarova Z.A.Konsept va lisoniy ong\| "FarDU ilmiy xabarlar", 2020,4-son, 233-234-bet.
8. I.M.Tuxtasinov. Tarjimaga lingvokulturologik yondashuv. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'li vazirligi Samarqand davlat chet tillar instituti . Xorijiy tajriba, istiqbolli izlanishlar va tillarni o'qitishning innovatsion usullari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2020 y. 5-b